

## KUCHLI ARMIYA – BUYUK KELAJAK

*San'atshunoslik fakulteti*

*Musiqiy ta'lif va madaniyat kafelrasi  
o'qituvchisikatta o'qituvchisi*

**B.Sobirov.**

*Madaniyat muassasalarini tashkil enish  
hamda boshqarish yo'nalishi talabasi*

**A.Bohodirov.**

*Armiya faqat qurol va aslaha bilan emas ona Vatan uchun jonini ayamaydigan harbiylar bilan qudratlidir.<sup>19</sup>*

*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti,  
Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni  
Shavkat Mirziyoyev.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Qurolli Kuchlarimizning jangovar tayyorgarligi hamda yoshlarimizning vatanparvarlik ruhida tarbiya topishlarida o'tkaziladigan madaniy tadbirlarning ahamiyati va dolzarbligi shuningdek Qurolli kuchlarimizning milliy ma'naviy ongini oshirishda tashkil etilayotgan madaniy tadbirlar borasida fikr-mulohazalar keltiriladi.*

**Kalit so'zlar:** *Miliy Armiya, Mudofaa vazirligi, madaniyat va san'at hodimlari, Prezident, qo'rboshi.*

**Annotation:** *This article provides opinions on the importance and relevance of cultural events in the combat training of our Armed Forces and the education of our youth in the spirit of patriotism, as well as cultural events organized to increase the national moral consciousness of our Armed Forces.*

**Аннотация:** *В данной статье приводятся мнения о значении и актуальности культурно-массовых мероприятий в боевой подготовке наших Вооружённых Сил и воспитании нашей молодёжи в духе патриотизма, а также культурно-массовых мероприятий, организуемых в целях повышения национально-нравственного сознания наших Вооружённых Сил.*

**Kalit so'zlar:** *Miliy Armiya, Mudofaa vazirligi, madaniyat va san'at hodimlari, Prezident, qo'rboshi.*

Yangi O'zbekistonimizda barcha sohalar kabi Milliy Armiyamizni har tomonlama rivojlantirish hamda ularning moddiy-tehnik bazasini kuchaytirish borasida bir qator isohotlar amalga oshirilib armiyamiz zamonaviy qurollar

<sup>19</sup> [www.Prezident.uz](http://www.Prezident.uz) saytidan olindi.

bilan ta'minlandi. Xususan, hozirgi kunda Milliy Armiyamiz jahonning 106 mamlakati ichida 54-o'rinni egallaydi. Global Fire Power ma'lumotlariga ko'ra Milliy Armiyamizning tarkibida; 420 ta tank, 1215 ta BTR (zirhli transport vositasi), 98 ta raketa tizimlari, 70 ta qiruvchi samalyot, 65 ta vertolyot, xususan, 35 ta hujumkor vertolyot va boshqa ko'plab qurollarga ega. Armiyaga chaqiruv yoshi 18 yosh bo'lib, xizmat muddati 12 oy, xizmatga layoqatlilar qariyb 7 millionga yaqin, muntazam harbiylar soni esa 65000 kishini tashkil etadi.<sup>20</sup> Yuqoridagilarga qo'shimcha sifatida 2022-yilda Mudofaa vazirligi harbiy jamoalarining xaqaro maydonlarda erishayotgan yutuqlari haqida bir-ikki misol keltirib o'taman. 2022-yil iyun oyida Turkiyaning Isparta shaxrida "Eng ilg'or merganlar jamoasi" musobaqasi o'tkazildi va unda jamoamiz faxrli 2-o'rinni qo'fga kiritdi. Ahamiyatlisi shuki, mazkur bellashuvda NATO tarkibiga kiruvchi 12 ta davlat jamoalari ham ishtirok etgan edi. Xalqaro armiya o'yinlari ("ArMI – 2022") o'yinlarida Mudofaa vazirligi terma jamoalari 34 ta davlatning 270 ta jamoasi orasida 7 ta oltin, 10 ta kumush hamda 5 ta bronza medallar bian umumjamoa hisobda faxrli 2-o'rinni egalladi.<sup>21</sup> 2018-yil 10-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli kuchlar Oliy Bosh qo'mondoni Shavkat Miromonovich Mirziyoyev – "Qurolli Kuchlarimiz – mamlakatimiz barqarorligi va taraqqiyotining mustahkam kafolatidir" nomli ma'rzasida – "men yil davomida Qurolli kuchlarning jangovar tayyorgarligi va qobiliyatini tahlil qilib bordim. Harbiy o'quv mashqlarini Kattaqo'rg'on poligonida kuzatdim, Janubi - G'arbiy, Sharqiy va Toshkent harbiy okruglarida Mudofaa vazirligi va chegara qo'shinlari bo'linmalarini, bugun esa Chirchiq shahridagi harbiy qismni borib ko'rdim. Harbiy xizmatchilar bilan suhbatlashdim, mansabdor shaxslarning hisobotlarini eshitdim. Natijada ko'p yillar davomida yig'ilib qolgan jiddiy, tizimli muammolar aniqlandi. Bular – kadrlar masalasi, qo'shinlarni zamonaviy qurol-yarog'lar bilan ta'minlash, harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilish, yoshlар va harbiy xizmatchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga taalluqli muammolardir"<sup>22</sup> – deb ta'kidlaydilar. Darhaqiqat, Prezidentimiz ta'kidlaganlari kabi Milliy Armiyamizni rivojlantirish oldidagi eng dolzarb masalalardan birinchisi harbiy kadrlar masalasıdir. Albatta armiyada qanchalik zamonaviy qurollar bo'lmasin ularni ishlata oladigan salohiyatli askarlar bo'lmasa ularning borligidan hech qanday naf yo'q. Bu yo'lda ularning bilim-malakalarini oshirib borish ta'lim tashkilotlarining vazifasi bo'lsa, ularni har tomonlama yetuk, vatanparvar qilib tarbiyalash madaniyat va san'at hodimlarining eng asosiy vazifasidir. Bu fikrlarni aytishimizning sababi shuki, vatanimizda yashab kelayotgan har bir

<sup>20</sup> <https://daryo.uz/2023/01/06/ozbekiston-armiyasi-dunyodagi-eng-kuchli-armiyalar-reytingi>.

<sup>21</sup> <https://daryo.uz/2023/01/06/ozbekiston-armiyasi-dunyodagi-eng-kuchli-armiyalar-reytingi>

<sup>22</sup> [www.Prezident.uz](http://www.Prezident.uz) saytidan olindi.

inson avvalo vatan himoyachisi, askardir. Shunday ekan, jonajon xalqimiz, avvalo yoshlarimizni, vatanparvarlik, milliy qadryatlar ruhida hamda milliy o‘zligini anglash, shijoatini yuksaltirish tariyalashga jiddiy e’tibor qaratishimiz shart! Vatanimizning barcha hududlarida o’tkazilayotgan tadbirlarning mavzu va ko’lamidan qat’iy nazar eng muhum vazifasi vatanga muhabbatni yuksaltirishi, mustaqillik ne’matini ulug’lashi va jamiyatni mustaqilligimizga qarshi bo’lgan buzg‘unchi g‘oyalardan himoyalab boruvchi o‘ziga xos filtr bo‘lmog‘i lozim. Tashkil etilayotgan madaniy tadbirlarda tarixiy qahramonlarimiz, ota-bobolarimiz haqida iqtibos keltirib xalqimizga tanitib borishimiz zarur. Misol uchun: Sovet mustamlakasi davrida “bosmachi” deb atalgan milliy istiqlolchi, qo‘rboshi bobolarimizdan Muhammad Aminbek, Shermuhammadbek, Katta Ergash, Kichik Ergash kabi qo‘rboshilarimizdan iqtibos sifatida sahma ko‘rinishlar ko‘rsatishimiz xalqimizning milliy g‘ururini, milliy ongini oshirishga o‘ziga xos ko‘mak beradi. Chunonchi, harbiy qudratning yuqoriligi qurol aslahadan ko‘ra ham harbiylar va xalqning milliy o‘zligini qanchalik saqlay olishiga bog‘liq. Bu borada qiliniyatgan asosiy islohotlardan biri barcha universitetlarda “Harbiy ta’lim” fakultetlari tashkil etildi, undan tashqari barcha oliygochlarda muddatli harbiy xizmatni o’tab kelgan talabalardan iborat “Qalqon” jamoasi tuzilmoqda. Yana quyidagi oliy ta’lim tashkilotlari: Chirchiq oliy tank komandir-muhandislik bilim yurti, Jizzax aviatsiya oliy harbiy bilim yurti, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasi, Samarqand avtomobilchi komandir-muhandislar oliy harbiy bilim yurti, Toshkent oliy umumqo‘sish qo‘mondonlik bilim yurti<sup>23</sup> kabilarda yetuk mutaxasis kadrlar tayyorlanmoqda. Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, hozirgi agressivlashib borayotgan, kuchli davlatlarning kuchsiz davlatlarga bosimi ortib borayotgan mo‘rt dunyoda kelajagi buyuk davlatimizning o‘z qat’iy pozitsiyasida mustahkam turishi uchun ham kuchli har tomonlama zamonaviy Milliy Armiyamizning bo‘lishi juda muhimdir!

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni otash tartibi togrisidagi nizomi. Toshkent - 2006 yil.
2. <https://lex.uz/docs/-3372089?ONDATE=24.03.2020> qonunlar bazasi.

<sup>23</sup> [O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi](#) (2000-2005)

3. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 5-sentyabrdagi O'RQ-564- sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.09.2019-y., 03/19/564/3690-son
4. <https://mudofaa.uz/21780/>
5. HUQUQNI MUHOFAZA QILUVCHI ORGANLAR , Toshkent – 2012
5. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005)